

# **AGENTLIK TIZIMIDAGI MAKTABLARGA 2024/2025-O'QUV YILI UCHUN O'QUVCHILAR QABULI TO'G'RISIDA**

## **PRESS- RELIZ**

Joriy yilning 27-uyul kuni Ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari agentligi tizimidagi 14 ta Prezident matabiga kirish imtihonlarining 2-bosqichi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 1 smenada bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-maydag'i "Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlariga o'quvchilarni saralab olish hamda qabul qilish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 214-sون qarori hamda Vazirlar Mahkamasini majlisining joriy yilning 16-apreldagi "2024/2025 – o'quv yili uchun Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, maktab-internatlar hamda ijod maktablariga o'quvchilar hujjatlarini qabul qilish hamda kirish imtihonlarini tashkil etish to'g'risida"gi 69-sон bayoni asosida Agentlik tizimidagi maktablarga o'quvchilar qabuli amalga oshirilmoqda.

Ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari agentligi tizimidagi maktablarga **2024/2025-o'quv yili uchun hujjatlar qabuli 1-iyundan – 20-iyunga qadar faqat ONLAYN shaklda ariza.piima.uz sayti orqali** amalga oshirildi.

Agentlik tizimidagi Prezident, ijod hamda ixtisoslashtirilgan maktablarga kirish imtihonlari **69-bayonga asosan katta sig'imli 56 ta yopiq binolarda** o'tkazilishi belgilangan.

**2024/2025-o'quv yili uchun Agentlik tizimidagi maktablarga jami 244 378 ta ariza kelib tushgan.** Shundan:

- Prezident maktablariga **62 062 ta**;
- Ijod maktablariga **5 512 ta**;
- Tayanch ixtisoslashtirilgan maktablarga **42 785 ta**;
- Ixtisoslashtirilgan maktablarga **134 019 ta**.

Prezident maktablariga qabul qilingan hujjatlar bo'yicha **bitta o'ringa o'rtacha 185 ta hujjat** to'g'ri kelmoqda.

Bunda, bir o'ringa qabul qilingan hujjatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona viloyatiga **293 ta**, Andijon viloyatiga **285 ta**, Samarqand viloyatiga **249 ta**, Namangan viloyatiga **225 ta** hamda eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyati **99 ta** hamda Navoiy viloyati **81 ta hujjat** to'g'ri keldi.

**Ma'lumot uchun: 14 ta** Prezident maktabining 5-sinfiga **336 nafar** (har bir maktabga **24 nafardan**) o'quvchi qabul qilinadi.

**Ijod maktablariga** qabul qilingan hujjatlar bo'yicha bir o'ringa qabul qilingan hujjatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan viloyatidagi Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod matabiga **35 ta**, Farg'ona viloyatidagi Erkin Vohidov hamda Jizzax viloyatidagi Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktablariga **16 tadan** eng past ko'rsatkich esa Toshkent shahridagi Abdulla Qodiriy nomidagi ijod matabiga **5 ta** hujjat to'g'ri keldi.

**Ma'lumot uchun:** **9 ta** ijod maktabining 7-sinfiga **400 nafar** (har bir mактабга **40/60 nafardan**) o'quvchi qabul qilinadi.

**Hududiy ixtisoslashtirilgan maktablarga** qabul qilingan hujjatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona viloyatiga **17 815 ta**, Samarqand viloyatiga **13 125 ta**, Andijon viloyatiga **12 904 ta** hamda eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatiga **2 987 ta**, Toshkent shahriga **3 626 ta**, Sirdaryo viloyati **5 645 ta** hujjat qabul qilingan.

Tayanch ixtisoslashtirilgan maktablari: **Abu Ali ibn Sino nomidagi** ixtisoslashtirilgan maktabiga **3 083 ta**, **Mirzo Ulug'bek nomidagi** ixtisoslashtirilgan maktabiga **2 556 ta**, **Muhammad al-Xorazmiy nomidagi** ixtisoslashtirilgan mактabi va filiallariga jami **42 785 ta** hujjat kelib tushgan bo'lib, jumladan Toshkent shahridagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabiga **17 502 ta**, mazkur maktabning Nukus filialiga **3 686 ta**, Andijon filialiga **8 651 ta** hamda Samarqand filialiga **7 307 ta** hujjat qabul qilingan.

**Ma'lumot uchun:** **179 ta** ixtisoslashtirilgan maktabning 5-sinfiga **5 520 nafar**, 7-sinfiga **2 208 nafar**, shu jumladan: **Abu Ali ibn Sino nomidagi** ixtisoslashtirilgan maktabiga **120 nafar**, **Mirzo Ulug'bek nomidagi** ixtisoslashtirilgan maktabiga **40 nafar**, **Muhammad al-Xorazmiy nomidagi** ixtisoslashtirilgan maktabiga **120 nafar** o'quvchi qabul qilinadi.

Agentlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi ixtisoslashtirilgan maktablariga kirish imtihonlari joriy yilning 4-, 5-, 6-iyul kunlari o'tkazildi. Prezident maktablarining 1-bosqich kirish imtihonlari 7-iyul kuni bo'lib o'tdi. Tayanch ixtisoslaashtirilgan maktablarining kirish imtihonlari 9-, 10-iyul kunlari hamda ijod maktablarining 3-bosqich kirish imtihonlari esa 10-iyul kuni o'tkazildi.

Agentlik tizimidagi barcha maktablarga kirish imtihonlarni yuqori saviyada tashkil etish bo'yicha viloyat hokimliklari, Ichki ishlar, Milliy gvardiya, Tez tibbiy yordam, Xavfsiz shahar markazi hamda Bilim va malakalarni baholash agentligi bilan hamkorlikda tayyorgarlik ishlari olib borildi.

**Ma'lumot uchun, Prezident maktablarining kirish imtihonlari** ikki bosqichda quyidagi fanlardan o'tkaziladi:

**birinchi bosqich** — matematika fanidan jami **30 ta test** shaklida o'tkaziladi.

Birinchi bosqich natijasiga ko'ra qabul kvotasida belgilangan har bir o'ringa **20 nafar** hisobidan, har bir maktabda jami **480 nafar** maksimal ball to'plagan o'quvchilarga ikkinchi bosqichda ishtiroy etishga ruxsat etiladi.

**Ikkinchi bosqich kirish imtihonlari quyidagi** fanlardan **test shaklida** o'tkaziladi:

- matematika fanidan tanqidiy fikrlash va muammoni yechish bo'yicha **40 ta test**;
- ingliz tili fanidan grammatika va matn bilan ishlash bo'yicha **40 ta test** savollari.